

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№6

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
612 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbiki Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherzov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalari boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyorovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rnı	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rnı va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрвич	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления	366
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	372
Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich	
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия	376
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea	383
Umidjan R. Nazarkulov	
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari	388
Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida)	393
Xudoyorova Mehrangiz	
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы ..	400
Адилова Зулфия Джавдатовна, Шоев Алим Халмуратович	
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi	408
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish	414
Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich, Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim, Yo'ichiye Oybek Ulug'bek o'g'li	
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati	419
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar	427
Mirzaxmedova A. A.	
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	432
Mirzaxmedova A. A.	
O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar	437
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	
Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollari	442
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	
Aholi turmush farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari	447
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
Progression of Small Business and Entrepreneurial Activity in Uzbekistan	450
Dauletbaeva Ulzada Bakhadirovna	
Raqamli moda dizayni va ishlab chiqarish usuli uchun clo3D ma'lumotlar bazasi	454
Temirova Gulnoz Ibodovna, Esanova Ma'rifat G'ayratovna	
Xususiy ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishning amaliy jihatlari	459
Karimov Ulug'bek Usmonovich	
Global iqtisodiyotda bank tizimini raqamlashtirishning ahamiyati	465
Karimova Komila Daniyarovna, Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi	
Dasturiy vositalarning o'zaro muvofiqlikda ishlash metodlari va algoritmlari tahlili	470
Oybek Allamov, Boburbek Babajanov, Jahongir Bekturdiyev	
Mamlakatimizdagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili	475
Baxriddinov Sharofiddin	
Surxondaryo viloyati hududlarida tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri	483
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	



Методика выбора оптимальной стратегии обеспечения финансовой безопасности текстильных предприятий	489
Турсунов Бобир Ортикмирзаевич	
Kimyosanoat korxonalarida "tejamkor ishlab chiqarish" konsepsiyasini tadbiq etish samaradorligi tahlili	494
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Buxoro shahar hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	499
Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich	
Aksiyadorlik jamiyatlari qarz kapitalini boshqarish siyosatining muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ta'siri	503
Kurbonov Xayrilla	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va xorijiy tajribalar	510
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Buxoro shahri turar-joy hududlarini takomillashtirish	516
Odilov A.B	
Buxoro shahrining barqaror rivojlanishida shahar infratuzilmasini yaratish metodlari	522
Xasanov Feruz Anvarovich, Reyimbayev Shuxrat Sadullayevich	
Paxta chigitidan yog' olishda qovurish jarayonining bazi aspektlari	527
Artiqov A. , Fayziev E.U.	
Перспективы развития международного финансового центра в узбекистане	530
Нуритдинова Мафтуна Жахонгировна	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: a Review of Global and Regional Strategies	535
Zarina Gafarova	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari samaradorligini yaxshilash	541
ISMAILOV TIMUR KUATBAEVICH, SULTAMURATOV QALLIBEK, SAGINBAEV SULTANBEK TURDIBAY O'G'LI	
Ekologik mehmonxonalar xizmat korsatish faoliyati davomida atrof -muhitga ta'sirini organish.	545
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Mamlakatimizda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy tahlil hamda takomillashtirish yuzasidan takliflar	551
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ практики управления системой формирования финансовых ресурсов высших учебных заведений	558
Гулшат Карлибаева	
Kogon shahrida amir saroyining qurilishi va modern arxitekturaning kirib kelishi	562
Nabiyev Hamid Mirzaevich	
Единое информационное пространство лечебно-профилактического учреждения	568
Ураков Шокир Улашович	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari	575
Uralov Temur Boxodir O'g'li	
Aksiyadorlik jamiyatlariga innovatsion usullarning joriy etishning tashkiliy, iqtisodiy va xuquqiy jihatlari	580
Ismailov Allayor Rashidovich	
Возможности и правовые основы использования блокчейн и криптоактивов в банковской системе Узбекистана	587
Ражабова Умида Умурзаковна	
Xorijiy mamlakatlarda mahsulotlar muvofiqligini baholash amaliyoti	594
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	



O'zbekiston sug'urta bozorida investitsiya faoliyatining rivojlanish dinamikasi.....	601
Zoyirov Laziz Subxonovich	
NYU-YORK FOND BIRJASINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	606
Holov Sherali	

NYU-YORK FOND BIRJASINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Holov Sherali

PhD, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning eng yirik moliya markazlaridan biri bo'lgan Nyu-York fond birjasining (NYSE) shakllanish jarayoni, rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy faoliyat mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida NYSEning institutsional tuzilmasi, savdo jarayonlarining tartibga solinishi, listing talablari, investorlarga ko'rsatiladigan axborot xizmatlari hamda yuqori likvidlikni ta'minlovchi texnologik infratuzilma kabi asosiy omillar o'rganildi. Shuningdek, birjaning global kapital bozorlaridagi o'rni, IPO jarayonlari, raqamli texnologiyalar, algoritmik savdo va korporativ boshqaruv standartlari bo'yicha ilg'or amaliyotlar tahlil etildi. NYSE modeli asosida O'zbekiston kapital bozorini rivojlantirish, xususan fond birjasi likvidligini oshirish, listing jarayonlarini soddalashtirish, investorlar uchun ochiqlik va shaffoflikni kengaytirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Nyu-York fond birjasi, NYSE, kapital bozori, listing, IPO, texnologik infratuzilma, algoritmik savdo, investitsiya muhiti, korporativ boshqaruv.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the formation process, development stages, and modern operational mechanisms of the New York Stock Exchange (NYSE), one of the world's largest financial centers. The study examines key aspects of NYSE's institutional structure, the regulation of trading processes, listing requirements, investor information services, and the technological infrastructure that ensures high market liquidity. Furthermore, advanced practices of the exchange in global capital markets—such as IPO procedures, digital technologies, algorithmic trading, and corporate governance standards—are thoroughly explored. Based on the NYSE model, the research substantiates opportunities for developing Uzbekistan's capital market, particularly improving stock exchange liquidity, simplifying listing procedures, enhancing transparency and openness for investors, and integrating modern technologies.

Keywords: New York Stock Exchange, NYSE, capital market, listing, IPO, technological infrastructure, algorithmic trading, investment environment, corporate governance.

Аннотация: В статье представлен углубленный анализ процесса становления, этапов развития и современных механизмов функционирования Нью-Йоркской фондовой биржи (NYSE), одного из крупнейших мировых финансовых центров. В исследовании рассмотрены такие ключевые факторы, как институциональная структура NYSE, регулирование торговых процессов, требования к листингу, информационные услуги, предоставляемые инвесторам, и технологическая инфраструктура, обеспечивающая высокую ликвидность. Также проанализирована роль биржи на мировых рынках капитала, передовой опыт в процессах IPO, цифровые технологии, алгоритмическая торговля и стандарты корпоративного управления. На основе модели NYSE обоснованы возможности развития рынка капитала Узбекистана, в частности, повышение ликвидности биржи, упрощение процессов листинга, расширение открытости и прозрачности для инвесторов, внедрение современных технологий.

Ключевые слова: Нью-Йоркская фондовая биржа, NYSE, рынок капитала, листинг, IPO, технологическая инфраструктура, алгоритмическая торговля, инвестиционная среда, корпоративное управление.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida kapital bozorlarining barqarorligi va samaradorligi mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti, investitsion muhitning raqobatbardoshligi hamda korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fond birjalari faoliyati qancha yuksak darajada rivojlangan bo'lsa, iqtisodiyotning real sektoriga kapitalning oqimi shuncha samarali taqsimlanadi, investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinadi va korporativ boshqaruv madaniyati yanada mustahkamlanadi. Shu nuqtayi nazardan, dunyoning eng yirik va eng qadimiy moliya institutlaridan biri bo'lgan Nyu-York fond birjasi (NYSE)ning rivojlanish modeli global moliya tizimining tayanch mexanizmlaridan biri sifatida alohida e'tirof etiladi.

NYSE nafaqat savdo hajmi va likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda yetakchilik qiladi, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, investorlar uchun ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, listing talablarini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda ilg'or korporativ boshqaruv amaliyotlarini tatbiq etish orqali global



iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi. Shu boisdan, ushbu birja modeli rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O'zbekiston kapital bozorini modernizatsiya qilish jarayonida o'rganilishi zarur bo'lgan eng muhim tajribalardan biridir.

O'zbekiston so'nggi yillarda kapital bozorini rivojlantirish, fond birjasi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, listing jarayonlarini soddalashtirish, IPO va SPO amaliyotlarini kengaytirish borasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. "Kapital bozorini rivojlantirish agentligi" faoliyatining yo'lga qo'yilishi, Toshkent Respublika fond birjasining texnologik modernizatsiyasi, onlayn-brokerlik xizmatlarining joriy etilishi va raqamli platformalar orqali savdo jarayonlarining avtomatlashtirilishi ushbu sektorni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Biroq mamlakatda kapital bozorining chuqurligi, likvidligi, investorlar faolligi kabi ko'rsatkichlar hozircha past darajada bo'lib, rivojlangan bozorlar tajribasidan samarali foydalanishni talab qiladi.

Shu sababli NYSEning faoliyat mexanizmlarini, rivojlanish bosqichlarini, texnologik infratuzilmasini va investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ilg'or tajribalarini o'rganish O'zbekiston kapital bozorini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot NYSE modelining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, milliy kapital bozorining jozibadorligi va barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy takliflar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

Kapital bozorlarining rivojlanishi, fond birjalari faoliyati va ularning iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha xalqaro miqyosda keng ko'lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, NYSE modeli ularda markaziy o'rinni egallaydi. Quyida ushbu yo'nalishda yetakchi olimlar hamda global tashkilotlarning ilmiy qarashlari umumlashtiriladi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining bir qator hisobotlarida rivojlangan birjalarning barqaror infratuzilmasi, xususan kliring tizimi, depozitariy faoliyati va elektron savdo platformalarining integratsiyasi kapital bozorlarini chuqurlashtiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. NYSE modelida bu elementlar ayniqsa takomillashgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'ziga xos namuna sanaladi.

Zamonaviy moliyaviy texnologiyalar bo'yicha yetakchi tadqiqotchi López de Prado NYSEning algoritmik savdo ekotizimini yuqori likvidlik, past tranzaksiya xarajatlari va real vaqt rejimidagi ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatlarini ta'minlovchi ilg'or model sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, bu tajriba rivojlanayotgan fond bozorlarida ham keng qo'llanishi mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlar — A. Vahobov, B. Xodiev, S. Elmirzayevlarning ilmiy ishlanmalarida kapital bozorini modernizatsiya qilish, listing jarayonlarini soddalashtirish, investorlarga axborot yetkazib berish mexanizmlarini takomillashtirish, korporativ boshqaruv standartlarini oshirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish O'zbekiston kapital bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida ko'rsatib o'tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro kapital bozorining rivojlanishi New york fond birjasi xususiyatlarining samaradorligiga to'g'ri bog'liq. New york fond birjasi xususiyatlarining tahlili investitsiyalarning to'g'ri yo'naltirilishi, risklarni boshqarish va kapitalni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Moliya bozorlarining samaradorligini oshirish uchun sifatli ma'lumotlar, raqamli texnologiyalar, tartibga solish va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, xalqaro kapital bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun New york fond birjasi xususiyatlarini yanada rivojlantirish zarur. AQSHda kapital bozorining rivojlanishi tarixi:

1. Dastlabki davr. AQSHda kapital bozorining rivojlanishi XVII asrga borib taqaladi, bu paytda eng birinchi aksiyalar va obligatsiyalar savdosi boshlanadi. 1792 yilda New Yorkda "Buttonwood Agreement" imzolangan bo'lib, bu kelishuv 24 ta savdogar o'rtasida aksiyalar savdosini tartibga solishga qaratilgan edi. Bu kelishuv natijasida NYSE (New York Stock Exchange) tashkil topadi.

2. 19-asr Rivoji. 19-asrda AQSHda sanoat inqilobi boshlanadi va bu iqtisodiy o'sishga olib keladi. Temir yo'llar, to'qimachilik va metallurgiya kabi sohalar kengayadi. 1867 yilda NYSE da birinchi marta indekslar joriy etiladi. 1896 yilda Dow Jones Industrial Average (DJIA) tashkil topadi, bu esa bozorni kuzatish va iqtisodiy holatni baholashda muhim rol o'ynaydi.

3. 20-asrning Dastlabki Yillari. 1930-yillarda Buyuk Depressiya davrida AQSHning kapital bozori qiyin kunlarni boshdan kechirdi. 1933-1934 yillarda yangi moliyaviy qoidalar va qonunlar, masalan, Securities Act va Securities Exchange Act qabul qilinadi. Bu qonunlar investorlarga himoya taqdim etish va bozorning shaffofligini oshirishga qaratilgan.



4. Keyingi Rivojlanish. 1970-yillarda bozor raqobati kuchayadi, va yangi savdo texnologiyalari rivojlanadi. 1987 yilda bozorning inqirozi (Black Monday) sodir bo'ladi, bu esa investorlarga bozor xavflarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

5. 21-asrning Boshlanishi. 1990-yillarning oxirida internetning rivojlanishi va texnologik kompaniyalar, xususan, dot-com inqilobi orqali AQSHning kapital bozorida yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. 2000-yilda dot-com baloni portlashi bozorni yangi muammolarga duchor qiladi.

Bugungi kunda AQSH kapital bozori nafaqat NYSE, balki Nasdaq kabi boshqa bir qator birjalarni ham o'z ichiga oladi. Nasdaq asosan texnologik kompaniyalar uchun mo'ljallangan. Bozor strukturasi ETF (Exchange-Traded Fund) va indeks fondlari kabi yangi moliyaviy instrumentlar ham mavjud.

Fintech kompaniyalari tomonidan raqamli savdo platformalari va blokcheyn texnologiyalari orqali bozor yanada shaffof va qulay bo'lib bormoqda. Kripto-valyutalar va boshqa raqamli aktivlar ham investorlar orasida mashhurlik qozonmoqda.

AQSH kapital bozorida aksiyalarning narxlar ko'plab omillarga bog'liq, jumladan, iqtisodiy ma'lumotlar, siyosiy vaziyat va global tendensiyalar. O'tgan yillar davomida S&P 500 indeksining o'sishi, masalan, 2021 yilda 26,89% ni tashkil qilgan.

Hozirgi kunda bozor global iqtisodiyotdagi noaniqliklar, siyosiy vaziyatlar va pandemiyalarning ta'sirida davom etmoqda. Investorlar uchun risklarni boshqarish va diversifikatsiya muhim ahamiyatga ega.

AQSH kapital bozori o'z tarixida ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechirdi va hozirgi kunda ham yangiliklar va texnologiyalarning tez rivojlanishi bilan qiziqarli jarayonlarni davom ettirmoqda. Bozor shaffofligini oshirish va investorlarni himoya qilish uchun yangilangan qoidalar va qonunlar, shuningdek, raqamli innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

AQSH kapital bozorining tahlili o'z ichiga aksiyalar, obligatsiyalar, ETF'lar va boshqa moliyaviy instrumentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tahlil orqali bozorning hozirgi holati, trendlar, investitsiya imkoniyatlari va xavflarni o'rganamiz. Quyida jadvallar yordamida tahlilni yanada kengaytiramiz.

1-jadval. AQSH kapital bozori tuzilishi (2023)

Bozor turi	2023 yildagi Bozor qiymati (trillion dollar)	Asosiy Indeks
Aksiyalar	45	S&P 500, DJIA, Nasdaq
Obligatsiyalar	25	US Treasury Bonds
ETF	7	SPDR S&P 500 ETF
Kripto-valyutalar	1	Bitcoin, Ethereum

Manba: SEC ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

AQSH aksiyalar bozori jahonning eng katta bozoridir, va S&P 500 indeksi eng ko'p kuzatiladigan indekslardan biri hisoblanadi. Obligatsiyalar bozorida esa davlat obligatsiyalari investorlar uchun xavfsiz variant bo'lib qolmoqda.

Texnologiya sektori aksiyalar bozorining eng katta ulushini egallaydi. Bu sektordagi kompaniyalar innovatsion yechimlar va yangi mahsulotlar orqali o'sishga erishmoqda.

AQSH kapital bozori jadal rivojlanmoqda, turli sektorlar va investitsiya strategiyalari mavjud. Investorlar uchun bu bozor yangi imkoniyatlar va xavflarni o'z ichiga oladi. O'zgaruvchan iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda tahlil qilish va strategiya ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. 2014-2023-yillar davomida AQSH aksiyalar va obligatsiyalar bozori bir qator muhim voqealarni va iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu tahlilda aksiyalar va obligatsiyalar bozorining o'zgarishlari, tendensiyalari va asosiy ko'rsatkichlari keltiriladi.

2-jadval. AQSH aksiyalar va obligatsiyalar bozori tahlili (2023)

Yil	Aksiyalar Bozor Katta Hajmi (trillion dollar)	Obligatsiyalar Bozor Katta Hajmi (trillion dollar)	Aksiyalar O'sish (%)	Obligatsiyalar O'sish (%)
2014	22	12	10.0	5.0
2015	24	13	9.1	8.0
2016	26	14	8.3	6.0
2017	30	15	15.4	5.0
2018	31	16	3.3	3.0
2019	36	17	16.1	5.5
2020	30	18	-16.7	7.0



2021	46	22	53.3	20.0
2022	36	23	-21.7	3.0
2023	45	24	25.0	5.0

Manba: SEC ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

AQSH aksiyalar va obligatsiyalar bozorlarining tahlili 2014-2023 yillar davomida o'zgaruvchan tendensiyalarni ko'rsatdi. 2014 yilda aksiyalar bozorining hajmi 22 trillion dollarni tashkil etgan bo'lsa, obligatsiyalar bozorining hajmi 12 trillion dollarni tashkil etdi, aksiyalar bozorida o'sish 10% ni tashkil qildi, obligatsiyalar bozorida esa 5% o'sish kuzatildi. 2015-2017 yillarda aksiyalar bozorida sezilarli o'sish kuzatilib, 2017 yilda 15.4% ga o'sdi, bu iqtisodiy ishonchning kuchayishi va investitsiyalar oqimi bilan bog'liq edi. 2018 yilda aksiyalar bozorida o'sish sur'ati 3.3% ga kamaydi, bu esa global iqtisodiy noaniqliklar va savdo urushlari bilan izohlanadi. 2020 yilda pandemiya sababli aksiyalar bozorida 16.7% pasayish kuzatildi, ammo obligatsiyalar bozori o'sishning 7% ni ko'rsatdi. 2021 yilda aksiyalar bozorida katta o'sish (53.3%) ro'y berdi, bu iqtisodiy tiklanish va yirik sarmoya oqimlari bilan bog'liq edi, shu bilan birga obligatsiyalar bozori 20% o'sdi. 2022 yilda aksiyalar bozorida keskin pasayish (21.7%) kuzatildi, obligatsiyalar bozorida esa o'sish faqat 3% ni tashkil etdi. 2023 yilda aksiyalar bozorida o'sish 25% ga yetdi, obligatsiyalar bozorida esa o'sish 5% bo'ldi, bu global iqtisodiy tiklanish va moliyaviy siyosatlarining barqarorligini aks ettiradi. Shunday qilib, aksiyalar va obligatsiyalar bozorlari har yili o'zgaruvchan sur'atlarda o'sish va pasayishlarni ko'rsatib, AQSHning iqtisodiy siyosatlari va global voqealarga qanday javob berishini aks ettiradi.

Aksiyalar bozorida 2014-2021-yillarda kuchli o'sish kuzatildi, ammo 2020-yilda pandemiya ta'sirida qisqa muddatda pasayish bo'ldi. Obligatsiyalar bozorida esa o'sish barqaror bo'lib, har yili ozgina o'zgarishlar bilan davom etdi. 2021-yilda obligatsiyalar bozorida yuqori o'sish kuzatildi.

3-jadval. AQSH kapital bozori asosiy indekslarining o'zgarishi

Indeks	2022-yil	2023-yil	O'zgarish (%)
S&P 500	3,839	4,325	12.7
DJIA	33,000	33,600	1.8
Nasdaq	10,466	13,400	28.1

Manba: SEC ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2022-yilda S&P 500 va Nasdaq indekslari jiddiy pasayish ko'rsatdi, lekin 2023-yilda tiklanish kuzatildi. Nasdaq indeksining o'sishi texnologik kompaniyalar va raqamli iqtisodiyotning o'sishi bilan bog'liq.

4-jadval. AQSH sohalar bo'yicha aksiyalar bozori tuzilishi o'zgarishi (2023)

Sektor	2022 yil (%)	2023 yil (%)	aksiyalar o'zgarishi (%)
Texnologiya	25	30	20.0
Sog'liqni saqlash	15	14	-6.7
Moliyaviy xizmatlar	10	12	20.0
Energetika	8	10	25.0
Iste'mol mahsulotlari	10	8	-20.0

Manba: SEC ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Texnologiya sektori aksiyalar bozorida yetakchilikni saqladi, bu esa innovatsion kompaniyalar o'sishi bilan bog'liq. Energetika sektori ham o'sish ko'rsatdi, ayniqsa energiya narxlarining oshishi sababli. Iste'mol mahsulotlari sektori esa o'z ulushini yo'qotdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

AQSH kapital bozori global moliya tizimining markaziy elementi hisoblanadi. Ushbu bozorning rivojlanishi va samaradorligi iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiladi. Moliyaviy modellar ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki ular investorlar, kompaniyalar va davlat uchun strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. AQSH kapital bozorida bir qancha moliya modellaridan foydalaniladi:



Kapital aktivlari narxini belgilash modeli (CAPM): Bu model risk va daromad o'rtasidagi munosabatni tushuntiradi. Investorlar o'z investitsiyalarining riskini baholashda CAPM'dan foydalanadilar.

Portfel nazari: Markovits tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model investorlar uchun diversifikatsiya orqali riskni kamaytirish imkoniyatini yaratadi.

Tavakkalchilik nazari: Bu model riskni boshqarishda va qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Moliya muvozanati modellar: Ushbu modellar bozorning muvozanatini va moliyaviy aktivlarning narxini tushuntiradi.

AQSH kapital bozori XX asrning o'rtalaridan boshlab tez rivojlana boshladi. AQSHning siyosiy va iqtisodiy barqarorligi investorlar uchun jozibador muhit yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mishkin, F. S. (2019). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson Education.
2. Levine, R. (2005). Finance and growth: Theory and evidence. Handbook of Economic Growth, 1, 865–934.
3. López de Prado, M. (2018). Advances in Financial Machine Learning. Wiley Finance.
4. World Bank. (2022). Global Financial Development Report: Financial Structure and Development. Washington, D.C.
5. New York Stock Exchange (NYSE). (2023). Annual Report & Market Statistics. NYSE Group.
6. OECD. (2020). Corporate Governance Principles for Capital Market Development. Paris: OECD Publishing.
7. Vahabov, A. V., Xodiev, B. Y., & Elmirzayev, S. (2021). Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
8. Capital Market Development Agency of Uzbekistan. (2023). Uzbekistan Capital Market Overview. Toshkent.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100